



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 326 sahifa,
6-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Fizika ta'limida integratsiyalashgan yondashuv: mazmuni va ahamiyati.....	10
Doniyorova Iroda Baxtiyor qizi	
Zamonaviy boshlang'ich ta'lim: milliy dastur, kompetensiya va xorijiy tajriba integratsiyasi.....	14
Omonova Nilufar Parda qizi	
The Role of Environmental Project-Based Learning in Developing EFL Learners' Productive Skills.....	19
Xujanova Shaxina Abdullayevna	
Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'limning pedagogik aspektlari	24
Eshpo'latova Elnora Yo'ldoshovna	
Talabalarda stressga barqarorlikning nazariy va amaliy tahlili.....	29
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Maxmudova Shahzoda Maksudovna	
Malakaviy o'quv amaliyoti jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda didaktik ta'minotning ahamiyati.....	32
Ramazonova Bahroy Sadriddinovna	
Oliy ta'limda raqamli pedagogikaning institutsionlashuvi: boshqaruv, siyosat va raqamli transformatsiya strategiyalari.....	36
Nuraliyeva Dilshoda Yo'ichiboy qizi	
Aholini jismoniy sog'lomlashtirishda sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	41
V. Sh. Raximov	
O'spirinlik davrida motiv va motivatsion sohalarning kasb tanlashdagi o'rni	46
Rayimqulova S., Pulatova R., Do'smatova S., Matyakubova Shohista Odamboy qizi	
Tarbiyachi shaxsining shakllanishida psixologik determinantlarning roli	51
Vasila Yusupova	
Kasbiy ta'lim o'quvchilarini ijodiy qobiliyatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish	55
B. X. Sharopov	
Raqamli axborot makonida gumanistik g'oyalarni integratsiyalashning nazariy konsepsiyasi	59
Isanov Najotbek Ilmamat o'g'li	
Fanlararo integratsiya asosida o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish imkoniyatlari.....	63
J. M. Fayzullayev, Ortiqova E'zoza Olimjon qizi	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari	67
Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li	
Xalqaro ta'lim dasturlari asosida kasbiy ta'lim muassasalarida metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	70
S. A. Qarshiboyev	
Ijtimoiy media kontentlari orqali talabalarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
Suyunov Rustam Sadriddinovich	
Ko'p tilli muhitda ingliz tilini o'rganishning lingvistik xususiyatlari	78
Teshaboyeva Mohichexra Sohibjon qizi	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida bo'lajak pedagoglarning mediakompetentligini rivojlantirish zarurati.....	81
Umarov Azizbek Vaxobovich	
O'quvchilarda badiiy matn leksikasini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: muammo va yechim.....	85
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini ma'naviy tarbiyalashda Ahmad al-Farg'oniy asarlarini kompyuter imitatsion modellari asosida o'qitish metodikasi.....	89
S. S. Qulmurodova	
Enhancement of Periodontal Disease Management Strategies in Individuals With Chronic Hepatitis C Following Attainment of a Sustained Virological Response.....	92
Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna	



Epithelial-Mesenchymal Transition's Possible Role in the Pathogenesis of Periodontitis (Literature Review).....	95
Burkhonova Zarafruz Kobilovna	
Gamifikatsiya asosida bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari mexanizmini tatbiq etish	102
Bozorboyev Javlon	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	106
Jamilova Dilsuza To'lqin qizi	
Elektrir va magnit maydonida yorug'likning ikkilamchi sinishi.....	110
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Alimardonov Husan Yorqin o'g'li, Ismatullayev Sayfiddin Panji o'g'li	
Lazer texnologiyalarining zamonaviy qo'llanilishi	114
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Muminova Sevinch Kamoliddin qizi, Begnayeve Dilbar Bobonazar qizi	
Fotometrik kattaliklar	117
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Mamatqulova Zebo Komiljon qizi, Xolmaxmatova Sevara Sirojiddin qizi	
Qutublangan yorug'lik manbalari	121
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Turdimurodova Kumushbibi, Normuminova Madina	
Tabiatdagi optik hodisalar	125
Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Qudratova Sevinch Otabek qizi, Ulasheva Ruxshona Rustam qizi	
Rus tilini o'qitishda kompetensiyaga asoslangan innovatsion yondashuvlardan foydalanish	129
Erkinova Nozima Utkir qizi	
Rezervga bo'shatilgan harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-psixologik reintegratsiyasini tadqiq etishning ilmiy-metodologik tahlili	133
Ikmatullayev G'. Z.	
Raqamli ta'lim platformalarida matematika o'qitishda sun'iy intellekt yordamida baholash tizimini takomillashtirish	136
Mirzayeva Shahlo Abduraxmanovna, Akbarov Ulug'bek, Abdivaliyeva Umida	
Linguistic and Pedagogical Foundations of Teaching English as a Foreign Language in The Uzbek Context.....	140
Shokirova Mushtariy	
Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi transformatsion roli	144
Uzoqboyev Xojiakbar Qobuljon o'g'li	
Enhancing Collaborative Learning and Peer Feedback in EFL Classrooms Through Padlet: a Digital Approach to Group Work and Assessment.....	148
Veronica Khatamova	
Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning rasmlar asosida aqliy faoliyatini rivojlantirishning vizual-didaktik texnologiyalarini takomillashtirish.....	152
Meliqo'ziyev Abduraxmonjon Qahramonjon o'g'li	
Emotsional intellekt – hr menejerlarning qaror qabul qilish kompetensiyasining determinanti sifatida	157
Abdukarimov Muhammadjon Muratovich	
O'g'il bolalarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning tizimli-pedagogik modeli: nazariya, metodologiya va amaliyot	162
Islamova Fotima Shamsiddinovna	
Barkamol yosh avlod fazilatlarini shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni.....	170
Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna	
Development of Prevention of Professional-Pedagogical Deformation on the Basis of Health-Saving Technologies in Higher Educational Institutions.....	174
Saidova Parvina Mirzo kizi	
O'zbek xalq pedagogikasi mazmuni asosida talabalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslari	178
Rahmonqulova Guliza Faxriddin qizi	

Bolalarning maktabgacha yosh davrida emotsional rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tavsifi.....	182
<i>Abduraxmonova Gulmira Arapjon qizi, Yuldasheva Umida Maxmudovna</i>	
Alohida ehtiyojli bolalar uy ta'limini tashkil etishning korreksion pedagogik tizimining tarkibiy komponentlari.....	186
<i>Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalarining ahamiyati.....	190
<i>Umida Marasulova</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	193
<i>Mirzayeva Shahlo, Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Javliyeva Dilnura</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar adabiyoti kerakmi?!.....	196
<i>Dilfuza Shadiyeva</i>	
Experimental Study on the Psycho-Pedagogical Effectiveness of Mall-Based Multimodal Learning in Developing Pluricultural Competence	200
<i>Azimova Sevara Muzaffar qizi</i>	
Simulyatsion o'quv muhitida fizika o'qituvchilarining o'z-o'zini boshqarish va refleksiv kompetentligini oshirish	205
<i>Muradov Ilxomjon Abduxamid o'g'li</i>	
Ta'lim menejmentida strategik boshqaruv tushunchasining evolyutsiyasi.....	209
<i>Raximjonov Jamshid Rafiqjon o'g'li</i>	
Raqamli kompetentlik tushunchasining ilmiy-nazariy talqini va xorijiy hamda mahalliy tadqiqotlar tahlili	214
<i>Umirov Boboyor Baxtiyor o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish usullari.....	218
<i>Abdreimova Maftuna O'ktam qizi</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarining tuzilishi hamda o'quvchilar yoshiga muvofiqligi.....	223
<i>Bobolov Nuriddin Tojiyevich</i>	
Oliy ta'limda pedagoglarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalar	228
<i>Isabekov Bahodir Isabek o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tolerantlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik masalalari .	233
<i>Boydavletova Sohiba Abduganiyevna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida tarbiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	239
<i>G'aybullayev Bobur Nomonjon o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati.....	243
<i>Toshpo'latova Muxlisa G'olib qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning mazmuni va ilmiy-nazariy pedagogik asoslari.....	248
<i>Mamatqulova Saboxat Abduraxmonovna</i>	
Maktabgacha ta'limda monitoring va baholash tizimini takomillashtirish.....	253
<i>Amanova Durdona Kaxramonovna</i>	
O'zbekiston yoshlarining ma'naviy va estetik tarbiyasida tasviriy san'at va zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	257
<i>Esanova Hulkar Abdurayim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eksperimental-tajriba faoliyatini tashkil etish	261
<i>Gafurova Dilnoza Saloxiddinovna</i>	
Ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi xavfsizlik hissiga ta'sirining nazariy va amaliy tahlili	266
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Qoldiboyeva Xayriniso Eldarovna</i>	
Milliy o'yinlarni o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari.....	269
<i>Ismatov Po'latjon Abdumannobovich</i>	
Ta'lim sifatini boshqarish jarayonida kvalimetrik parametrlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarning ahamiyati	273
<i>Karimova Maxbubaxon Mukimjonovna</i>	



Innovatsion ta'lim sharoitida bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli.....	278
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Matematika o'qitishda milliy qadriyatlarni aks ettirish	282
<i>Mirzayeva Shahlo, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi,</i> <i>Muxtorova Sevinch Asad qizi, Xolboyeva Mushtariy Zayniddin qizi</i>	
Ingliz tilida fe'l frazeoformalarining morfologik tuzilishiga xos umumiy xususiyatlar.....	285
<i>Jo'rayeva Nargiza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini o'stirishda interaktiv metodlarning ahamiyati.....	289
<i>Ramazonova Munisa Hoshim qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining lug'at boyligini oshirishda intellektual o'yinlar va interfaol usullardan foydalanish.....	294
<i>Raxmonova Gulrux Ubaydullayevna, Ibragimova Dildora Turabovna</i>	
Maktabgacha ta'limda pedagoglar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda uslubiy xizmat va hamkorlik mexanizmlarining samaradorligi.....	298
<i>S. A. Rahmonberdiyev</i>	
Yoshlarni destruktiv submadaniyatlar ta'siridan himoyalashning innovatsion pedagogik usullari	304
<i>Xasanova Marxabo Turayevna</i>	
Социально-психологические особенности домашнего насилия в условиях трансформации семьи и цифровизации общества	308
<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна, Абдуллаева Азиза Комилжон кизи</i>	
Педагогические основы развития инновационной компетентности педагогов в системе дошкольного образования.....	315
<i>Гульнара Ахтямовна</i>	
Роль учебного процесса и творческой деятельности в сохранении психологического равновесия.....	320
<i>Коршубаева Рано Хазраткуловна</i>	

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR ADABIYOTI KERAKMI?!

Dilfuza Shadiyeva

Angren universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola "Maktabgacha ta'limda nutq o'stirish metodikasi" namunaviy fan dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, unda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining ravonligini shakllantirish hamda pedagog xodimlar uchun tavsiya etilgan metodik yondashuvlar va adabiyotlar tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar yoritilgan. Maqolada bolalar adabiyotining yosh avlod dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy kamoloti hamda estetik didini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati badiiy asarlar misolida ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bolalar adabiyoti, janr, ertak, topishmoq, bola dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, estetik did, nutq ravonligi.

Abstract: This article was prepared based on the model curriculum "Methods of Speech Development in Preschool Education". The study examines issues related to the development of the preschool education system, the formation of fluent speech in preschool children, and methodological approaches and literature recommended for pedagogical staff. In addition, the article highlights methodological recommendations aimed at developing children's independent thinking skills in the educational process. The scientific significance of children's literature in shaping the worldview, spiritual and moral development, and aesthetic taste of the younger generation is substantiated through examples of literary works.

Key words: preschool education, children's literature, genre, fairy tale, riddle, child worldview, spiritual and moral education, aesthetic taste, fluent speech.

Аннотация: Данная статья подготовлена на основе типовой учебной программы "Методика развития речи в дошкольном образовании". В статье рассматриваются вопросы развития системы дошкольного образования, формирования связной речи у детей дошкольного возраста, а также анализируются методические подходы и литература, рекомендованные педагогическим работникам. Особое внимание уделено методическим рекомендациям, направленным на развитие самостоятельного мышления детей в процессе обучения и воспитания. Также в статье научно обоснована роль детской литературы в формировании мировоззрения, духовно-нравственного развития и эстетического вкуса подрастающего поколения на примере художественных произведений.

Ключевые слова: дошкольное образование, детская литература, жанр, сказка, загадка, мировоззрение ребёнка, духовно-нравственное воспитание, эстетический вкус, связная речь.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy yetuk va intellektual salohiyatga ega shaxsni tarbiyalash ustuvor vazifalardan biridir. Shu bois, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tarbiyachi va pedagog kadrlar doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, innovatsion yondashuvlarni izlab topishi hamda ularni amaliyotga joriy etishi zarur. Bugungi faol pedagoglar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilg'or va zamonaviy g'oyalar asosida ish olib borish muhim ahamiyat kasb etishini allaqachon isbotlab bo'lishgan. Chunki maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichi bo'lib, u butun ta'lim-tarbiya jarayonining poydevorini tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar adabiyoti esa yosh avlodning dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy kamoloti va estetik didini shakllantirishga xizmat qiluvchi badiiy asarlar tizimidir. Bunda har bir bolaga individual yondashuvni ta'minlash, uning fikr va mulohazalarini tinglash, ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash hamda qiziqish va ehtiyojlariga mos tarzda ta'lim berish muhim deb hisoblaymiz. Bolalar adabiyoti bolalarning tafakkuri, hissiy olami va qiziqishlariga mos ravishda yaratilgani sababli, ularning ruhiy dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi hamda mustaqil tafakkur elementlarini shakllantirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.



Masalan, “Zumrad va Qimmat”, “Boy va g'arib”, “Uch og'a-ini botirlar” kabi xalq ertaklarida ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qilishi bolalarning axloqiy tarbiyasini mustahkamlaydi.

Sevimli adibimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning: “Birovning bolasini bironing otasi tarbiyalamasin”, – degan fikri mavjud. Adib o'z fikrida ayrim o'zbek bolalarining ko'proq Yevropa adabiyoti namunalari o'qib ulg'ayayotgani va milliy bolalar adabiyotiga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganidan kuyunib so'z yuritadi. Albatta, bu masalaga bir tomonlama yondashib bo'lmaydi. Chunki o'zbek bolalar adabiyoti ham jahon bolalar adabiyotining ilg'or an'analari ta'sirida rivojlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon bolalar adabiyotining nodir namunalari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Jumladan, Gulliverning sayohatlari, Robinzon Kruzo, So'na kabi asarlar o'zbek bolalarining ham sevimli kitoblariga aylangan. Aka-uka Grimm birodarlar, Charles Perrault, Aleksandr Pushkin hamda Lev Tolstoy asarlari va ertaklarini tinglab, ularning animatsion filmlarini tomosha qilib ulg'aygan avlod ham kam emas.

Rang-barang, yaltiroq muqovali rasmiy kitoblar kimga yoqmagan? Haqiqatan ham, “Zumrad”dan oldin “Qizil shapkacha”ni, “Ur to'qmoq”dan oldin “Bo'g'irsoq”ni, “Laylakvoy”dan oldin “Oltin baliqcha”ni taniganimiz sir emas.

Bola dunyoga kelganida uning ko'zlari beg'ubor, qalbi esa oppoq varaq singari bo'ladi. U hali bu dunyoning yaxshilik va yomonlik tomonlarini anglab yetmaydi. Ammo aynan shu sof qalbgga ilk bor ezgulik urug'ini qadovchi, mehr va orzular nishini unib chiqishiga turtki beruvchi sehrli kuch – bolalar adabiyotidir.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasalarida bir nechta metodik yo'nalishlar asosida ta'lim beriladi. Ular orasida “Nutq o'stirish mashg'ulotlari” alohida o'rin tutadi. Chunki ushbu mashg'ulotlar bolalarning lug'at boyligini oshirish bilan bir qatorda, ularning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, tafakkur jarayonlarini faollashtiradi hamda umumiy intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyoti esa murg'ak qalb egalari dunyosiga yo'l ochadigan sehrli kalitdir. Inson hayotining eng go'zal va eng sof davri – bolalikdir. Aynan shu davrda bola atrofdagi hayotni, yaxshilik va yomonlikni, do'stlik va razillikni, mehr va qahrni, rostgo'ylik va riyokorlikni anglay boshlaydi. Bu jarayonda ustoz va murabbiylar uchun bolalar adabiyoti namunalari muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Aynan bolalar adabiyoti orqali bola yaxshilik bilan yomonlikni, rost bilan yolg'onni farqlashni, go'zallikni his etishni, mehnatsevarlikni, hozirjavoblikni hamda tezkor xulosa chiqarishni o'rgana boshlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning qiyosiy-tahliliy, pedagogik kuzatuv, tavsifiy hamda kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim tizimida bolalar adabiyotining o'rni va ahamiyatiga oid ilmiy manbalar, metodik qo'llanmalar, xalq og'zaki ijodi namunalari hamda o'zbek va jahon bolalar adabiyoti vakillarining asarlari o'rganildi. Shuningdek, bolalar nutqini rivojlantirishda ertak, hikoya, maqol, topishmoq va she'rarning tarbiyaviy hamda pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, bolalar adabiyotining ularning nutqi ravonligi, mustaqil fikrlashi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va estetik didini shakllantirishdagi ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shuningdek, tadqiqot natijalarini umumlashtirishda tizimli yondashuv asosida xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalar adabiyoti – axloqiy va ma'naviy tarbiya vositasidir. Yaxshi asar bolani mehribon, sabrli va adolatli bo'lishga chorlaydi. Ertak va hikoyalardagi ijobiy qahramonlar orqali bola ezgulik sari intiladi, yomon ishlardan esa tiyilishni o'rganadi. Har bir kitob bolaning qalbiga nur ulashib, uni go'zallikka oshno etadi. Bolalar uchun yozilgan asarlar bola tarbiyasida muhim o'rin tutib, ota-ona hamda murabbiylar uchun o'ziga xos tayyor tarbiyaviy qo'llanma vazifasini bajaradi. Shu bois, biz pedagoglar bolani yoshligidanoq adabiyot bilan oshno etishimiz zarur. Zero, bolalar adabiyoti milliy qadriyatlarimizni avloddan avlodga yetkazuvchi muhim ma'naviy vositalardan biridir.

Folklorning ayrim janrlari bilan tarbiyachilar va boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolalarni ilk ta'lim davridayoq tanishtirishlari, ularga parchalar o'qib berish orqali voqea-hodisalar hamda obrazlarni tushuntirishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon bolalarda dastlabki adabiy tushunchalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodining ertak, topishmoq, tez aytish, maqol, qo'shiq va doston kabi janrlari xalq donoligining bebaho namunasi ekanligini bola ongiga singdiradi. Chunki bola aynan shu janrlar orqali o'z xalqining o'tmishi, madaniyati va qadimiy urf-odatlarini bilan tanishadi. Natijada unda vatanparvarlik, milliy g'urur va insoniylik tuyg'ulari mustahkamlanadi.

Bolalar adabiyoti har bir bolaning tafakkuri va tasavvurini kengaytiradi hamda boyitadi. Ertak, she'r, hikoya yoki turli mavzularda yaratilgan dostonlar orqali bola turli voqealar, qahramonlar, hayvonot va tabiat olami bilan yaqindan tanishadi. O'zbek kitobxonlariga yaxshi tanish bo'lgan "Zumrad va Qimmat" ertagida mehnatsevarlik, halollik va sabr-toqat orqali yomonlik ustidan g'alaba qozonish g'oyalari ilgari suriladi. "Bo'ringning tabib bo'lganligi" ertagida esa bola tafakkuri hayvonot dunyosi bilan uyg'unlashtiriladi. Alpomish dostonida esa mardlik, vatanparvarlik, do'stlik va mehr-muhabbat kabi fazilatlar ulug'lanadi.

Bolalar adabiyoti bolaning nutqi va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Mashg'ulotlarda yoki uy sharoitida she'r yodlagan, hikoya tinglagan bola so'z boyligini oshiradi, ifodali, aniq va ravon nutq so'zlashni o'rganadi. Bu esa uning kelajakda o'z fikrini erkin bayon eta oladigan, bilimli va barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, adabiyot orqali bolalarda ona tiliga muhabbat hissi shakllanadi, badiiy asarni ongli ravishda tushunish ko'nikmasi rivojlanadi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin yaratiladi hamda bola nutqining sofligi oshadi.

Quvonarli jihatlardan biri shundaki, o'zbek bolalar adabiyotida, ayniqsa, adabiy ertak janri sezilarli darajada rivojlandi. Dastlab, Hamid Olimjonning "Oygul va Baxtiyor", "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Shukur Sa'dullaning "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", Zafar Diyorning "Yangi ertak", "Toshxon bilan Moshxon", "Tulkining hiylasi", Sulton Jo'raning "Zangor gilam" va "Qaldirg'och" kabi adabiy ertaklari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan puxta badiiy asarlar sifatida e'tirof etildi.

XX asr o'rtalariga kelib o'zbek bolalar adabiyoti yanada rivojlandi. Bolalar yozuvchilari safi Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Tolib Yo'ldosh, Farhod Musajonov, Latif Mahmudov kabi ijodkorlar hisobiga kengaydi. Shuningdek, Shuhrat, Mirzakalon Ismoiliiy hamda Mirkarim Osim singari yirik adiblar ham bolalar uchun asarlar yaratdilar.

Quddus Muhammadiyning Tabiat alifbosi asari esa yosh kitobxonlarni ona tabiatga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalovchi, quvnoq ruh bilan sug'orilgan yuksak badiiy namunaga aylandi.

Har bir davrning ijtimoiy muhiti adabiy jarayonga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dastlab bolalar adabiyotida ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchilik qilgan bo'lsa, keyinchalik realistik adabiyot tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etdi. O'tgan asr o'rtalariga kelib esa bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastik adabiyot elementlari kuchaydi.

O'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotida mustaqillik arafasi muhim yangilanish davri bo'ldi. Istiqloq sharo-fati bilan milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarning tiklanishi bolalar adabiyoti namoyandalari ijodiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ularning asarlarida haqiqiy o'zbek qiyofasi tasviri yetakchi o'rin egallay boshladi. Husan Imomberdiyev, Anvar Obidjon Ko'chimov, Kibriyo Turdiyeva, Dilshod Rajab, Odil To'xtash kabi ijodkorlar sermahsul asarlari bilan bolalar adabiyotiga munosib hissa qo'shdilar.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos jihatlari, avvalo, qahramonlar tasvirida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Bu davrda o'zbek bolasi o'z millati va ajdodlari bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish ruhida tarbiyalovchi, tom ma'nodagi vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi asarlarni o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bolalar adabiyoti kattalar adabiyotidan farqli ravishda o'ziga xos til, uslub, mazmun va psixologik yondashuvga ega. Asarlarda qahramonlarning xatti-harakatlari bolalar hayotiga yaqin, ularning hayotiy tajribasiga mos tarzda tasvirlanadi. Masalan, Xudoyberdi To'xtaboyevning Sariq devni minib asarida bolalarning orzulari, soddaligi va hayotga bo'lgan ishonchi qiziqarli sarguzashtlar orqali ochib berilgan. Ushbu asar bolalarni nafaqat quvontiradi, balki ularda jasurlik, sadoqat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini ham shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasida bolalar adabiyotini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-martdagi PQ-4235-sonli "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi qarori¹ hamda "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida² yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, bolalar adabiyoti nashrlarini kengaytirish va ularni ta'lim muassasalari kutubxonalariga yetkazish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston – 2030 strategiyasida ham bolalar uchun milliy g'oyalar, vatanparvarlik va ma'naviy barkamollikni targ'ib etuvchi asarlar yaratish masalasi alohida qayd etilgan. Mazkur islohotlar natijasida "Kitobxon bolalar" respublika tanlovi, "Eng yaxshi bolalar yozuvchisi" mukofoti hamda "Bolalar uchun eng yaxshi asar" loyihalari yo'lga qo'yilib, yangi ijodkorlarning shakllanishiga keng imkoniyat yaratildi.

Bolalar adabiyotining ildizlari xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Xalq ertaklari, dostonlar, maqollar va topishmoqlar bolalarning dastlabki ma'naviy tarbiya vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda bolalar adabiyotiga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2022-yil 21-yanvardagi "Yangi O'zbekiston yoshlari" dasturi doirasida yoshlar uchun yaratilayotgan madaniy va adabiy muhitni kengaytirish, bolalar yozuvchilari ijodini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 07.03.2019 yildagi PQ-4235-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-4230944>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>



tashabbuslar ilgari surildi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida faoliyat yuritayotgan "Bolalar adabiyoti kengashi" esa ushbu jarayonni muvofiqlashtirib, bolalar uchun sifatli va milliy ruhdagi asarlar yaratilishini rag'batlantirib kelmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti – bu shunchaki kitoblar majmui emas, balki ezgulik, donolik va orzular maktabidir. U bolani nafaqat o'qishga o'rgatadi, balki hayotni sevishga, mehnat qilishga va insonlarga yaxshilik qilishga undaydi. Bolalar adabiyoti ta'sirida ulg'aygan bola qalbi nurli, fikri keng va vatanini sevuvchi inson bo'lib voyaga yetadi. Shu sababli har bir oilada kitobga mehr uyg'otish, har bir pedagog esa bolalar adabiyotiga alohida e'tibor bilan yondashishi zarur. Chunki kitob bilan ulg'aygan avlod – nur bilan ulg'aygan avloddir.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar adabiyotidan samarali foydalanish, milliy ertak va hikoyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish hamda bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, tarbiyachilar va ota-onalarning hamkorlikda bolalarni badiiy adabiyotga qiziqtirishi, ularning mustaqil fikrlashi, nutq ravonligi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, bolalar adabiyotini targ'ib etishga qaratilgan metodik tavsiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Babayeva D.R., Najmiddinova G.O. Bolalar nutqini o'stirish. – T.: "Ilm Ziyo Zakovat", 2020.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – T., 2006.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: "Musiqqa" nashriyoti, 2010.
4. Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. – T.: "O'qituvchi" nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.